ZAMONAVIY DUNYODA O‘ZBEKISTON VA XALQARO TASHKILOTLAR O‘RTASIDAGI HAMKORLIK JIHATLARI

Tillayev Bobomurod Abduvaxobovich, *NamDPI*
ORCID id: 0009-0008-7847-3787
E-mail: bobomurodtillayev@gmail.com
G‘oporova Shohzoda To‘lqin qizi, *NamDPI, talaba, ORCID id: 009-008-4662-8115 E-mail : shohzodagoporova@gmail.com*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasining turli xalqaro tashkilotlar bilan siyosiy, iqtisodiy, ekologik hamda madaniy jabhalardagi serqirra hamkorlik faoliyati tahlil qilinadi. Mamlakatimizning BMT, MDH, SHHT, YI, IHT kabi yirik xalqaro institutlar doirasida amalga oshirayotgan tashabbus va dasturlari yoritiladi. Xalqaro miqyosdagi hamkorlik O‘zbekistonning global sahnadagi integratsiyasi va barqaror taraqqiyotiga xizmat qilayotgani alohida ta’kidlanadi.*

Kalit iboralar: *O‘zbekiston, xalqaro tashkilotlar, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti, Yevropa Ittifoqi, Islom Hamkorlik Tashkiloti, xalqaro aloqalar, iqtisodiy taraqqiyot, ekologik muammolar, madaniy meros, iqlim o‘zgarishlari, Orol muammosi, transport infratuzilmasi, barqaror rivojlanish.*

АСПЕКТЫ СОТРУДНИЧЕСТВА МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И МЕЖДУНАРОДНЫМИ ОРГАНИЗАЦИЯМИ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ

Tillayev Bobomurod Abduvaxobovich, *НамДПИ*
Гопорова Шохзода Тулкин кизи, *НамДУ, студентка*

Аннотация: *в данной статье анализируется многогранная деятельность Республики Узбекистан по сотрудничеству с различными международными организациями в политической, экономической, экологической и культурной сферах. Освещаются инициативы и программы, реализуемые нашей страной в рамках таких крупных международных институтов, как ООН, СНГ, ШОС, ЕС, ОИС. Особо подчеркивается, что международное сотрудничество способствует интеграции Узбекистана на глобальной арене и устойчивому развитию страны.*

Ключевые слова: *Узбекистан, международные организации, Организация Объединённых Наций, Содружество Независимых Государств, Шанхайская организация сотрудничества, Европейский Союз, Организация исламского*

сотрудничества, международные отношения, экономическое развитие, экологические проблемы, культурное наследие, изменение климата, проблема Арала, транспортная инфраструктура, устойчивое развитие.

ASPECTS OF COOPERATION BETWEEN UZBEKISTAN AND INTERNATIONAL ORGANIZATIONS IN THE MODERN WORLD

Tillayev Bobomurod Abduvaxobovich, *NamDPI*
Goporova Shokhzoda Tulkinkizi, *student, NamSU*

Abstract: *This article analyzes the multifaceted activities of the Republic of Uzbekistan in cooperation with various international organizations in the political, economic, environmental, and cultural spheres. It highlights the initiatives and programs implemented by the country within the frameworks of major international institutions such as the United Nations (UN), the Commonwealth of Independent States (CIS), the Shanghai Cooperation Organization (SCO), the European Union (EU), and the Organization of Islamic Cooperation (OIC). Particular emphasis is placed on how international cooperation contributes to Uzbekistan's integration into the global arena and supports the country's sustainable development.*

Keywords: *Uzbekistan, international organizations, United Nations, Commonwealth of Independent States, Shanghai Cooperation Organization, European Union, Organization of Islamic Cooperation, international relations, economic development, environmental issues, cultural heritage, climate change, Aral Sea problem, transport infrastructure, sustainable development.*

O‘zbekiston o‘zining strategik jihatdan muhim geografik joylashuvi bilan Markaziy Osiyo hududidagi davlatlar ichida alohida o‘rin egallaydi. Mamlakat mintaqaning markazida joylashgan bo‘lib, bu holat u bilan qo‘shni davlatlar o‘rtasidagi aloqalarni rivojlantirishda sezilarli qulayliklar yaratadi. Bundan tashqari, mamlakatimiz tabiiy boyliklarga boyligi bilan ajralib turadi: Mendeleyev jadvalidagi barcha elementlar O‘zbekistonda mavjudligi mamlakat iqtisodiy salohiyatini yanada oshiradi. Tarixiy jihatdan esa O‘zbekiston hududi Sharq va G‘arb madaniyatlarini bog‘lovchi asosiy ko‘prik bo‘lib xizmat qilgan.

Mustaqillik yillarida respublikamiz 133 ta davlat bilan diplomatik aloqalarni yo‘lga qo‘ydi. Toshkent shahrida 45 ta xorijiy davlat elchixonasi, 9 ta faxriy konsullik hamda 11 ta xalqaro tashkilot vakolatxonasi faoliyat yuritmoqda. Mamlakatimizning tashqi siyosiy kursi Prezident Shavkat Mirziyoyevning nutqlari, strategik dasturlari, xalqaro shartnomalar va qonun hujjatlariga tayanadi. Mustaqillikka erishgandan so‘ng O‘zbekiston xalqaro tuzilmalar bilan faol hamkorlikni yo‘lga qo‘yib, ularning samarali a’zolaridan biriga aylandi.

Birinchi navbatta O‘zbekiston va BMT o‘rtasidagi aloqalarni alohida ta’kidlash joiz. Hususan, 1992-yil 2-mart kuni O‘zbekiston Respublikasi BMTga to‘laqonli a’zo sifatida qabul qilinganligi muhim ahamiyatga ega. Undan so’ng 1993-yil 28-sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida birinchi Prezidentimiz I.Karimov tomonidan ilk bor rasmiy murojaat qilindi. 2001-yilda esa mamlakat tashabbusi bilan BMT Xavfsizlik Kengashi huzurida terrorizmga qarshi kurash bo‘yicha maxsus qo‘mita tashkil etildi. 2002-yilda bosh kotib Kofi Annan, 2010-yilda Pan Gi Mun, 2017-yilda esa Antonio Guterreshning mamlakatimizga qilgan rasmiy tashriflari O‘zbekistonning xalqaro nufuzini yanada mustahkamladi. Bugungi kunda ham BMTning UNDP, UNICEF, FAO, WHO kabi tashkilotlari bilan hamkorlik aloqalari tobora mustahkamlanib bormoqda.

O‘zbekiston MDH doirasida iqtisodiy integratsiya, transport-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish va mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash yo‘lida faol harakatlarni misol qilib keltirish mumkin. MDH Iqtisodiy Kengashi orqali ko‘plab qo‘shma loyihalar amalga oshirilmoqda. 2004-yil Astanada o‘tkazilgan MDH Sammitida tashkilot tarkibida “Xavfsizlik Kengashi” tuzilgan edi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 06.08.2024 yildagi PQ-283-son “Markaziy Osiyo” xalqaro sanoat kooperatsiyasi markazi” erkin iqtisodiy zonasini tashkil etish to‘g‘risida qaroriga asosan ko’plab tadbirlar o’tkazildi.

Bundan tashqari O‘zbekiston Shanxay hamkorlik tashkilotining asosiy a’zolaridan biri sanaladi. Tashkilot doirasida mamlakatimiz xavfsizlik, energetika, infratuzilma va transport tarmoqlari sohalarida faol sheriklikni davom ettirmoqda. SHHT 2001-yil Shanxayda tashkil etilgan bo‘lib, Dushanbe sammitida O‘zbekiston ilk bor ishtirok etgan. SHHT orqali ko‘p tarmoqli hamkorlik chuqurlashtirishtirilib, mintaqaviy barqarorlik mustahkamlanib kelinmoqda.

Yevropa Ittifoqi 500 milliondan ziyod aholiga ega bo‘lgan, dunyodagi eng yirik siyosiy va iqtisodiy tuzilmalardan biridir. O‘zbekiston bu tashkilot bilan siyosiy muloqot, savdo-iqtisodiy, ilmiy, ekologik va ta’lim sohalarida faol aloqalarni rivojlantirmoqda. “Barqaror taraqqiyot uchun sheriklik va hamkorlik” bitimi doirasida texnik yordam dasturlari yo‘lga qo‘yilgan. Birlashgan Millatlar Tashkiloti va O‘zbekiston hukumati o‘rtasida imzolangan ushbu dastur Barqaror rivojlanish maqsadlariga (BRM) erishishni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Dastur doirasida quyidagi sohalarda texnik yordam ko‘rsatilmoqda: Soliq siyosati - 2024-yil avgust oyida BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) tomonidan “BRM uchun soliqlar” mavzusida o‘quv seminari tashkil etildi. Seminar soliq ma’muriyati mutaxassislari, siyosatchilar va akademik tadqiqotchilarning texnik tajribasini oshirishga qaratilgan edi. Shu bilan birga qishloq xo‘jaligi va baliqchilik - Yevropa Ittifoqi va BMT Taraqqiyot Dasturi hamkorligida baliqchilik tarmog‘ini rivojlantirish maqsadida zamonaviy uskunalar

taqdim etildi. Bu uskunalar baliqchilik xo‘jaliklaridagi suvning sifati va energiya samaradorligini oshirishga xizmat qilib kelmoqda.

Islom Hamkorlik Tashkiloti (IHT) ga a’zo 57 ta musulmon davlati bilan O‘zbekistonning aloqalari 1996 yildan boshlab izchil rivojlanmoqda. Madaniyat va ta’lim sohalarida OIC SESRIC, Islom Taraqqiyot Banki (IDB) kabi institutlar bilan kooperatsiya yo‘lga qo‘yilgan. Islom Taraqqiyot Banki O‘zbekistonda qator ijtimoiy soha loyihalarini moliyalashtirgan, xususan: Oliy ta’lim muassasalarini modernizatsiya qilish, yangi universitetlar qurilishi; Tibbiy xizmatlar va maktab infratuzilmasini yaxshilash; Yoshlar uchun innovatsion va tadbirkorlik dasturlarini qo‘llab-quvvatlash; IDB shuningdek, O‘zbekistondagi ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlikda grant dasturlarini amalga oshirib kelmoqda

O’zbekiston ekologiya va atrof-muhit sohasidagi hamkorlik bo’yicha Orol fojiasini oldini olish masalalari xalqaro hamjamiyat e’tiborida. Orol dengizining qurishi O‘zbekiston va qo‘shni davlatlar uchun ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlarga olib keldi. Shu bois 2018-yilda BMT Bosh Assambleyasida Orolbo‘yi mintaqasi “ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi” deb e’lon qilindi. Bu O‘zbekiston tashabbusi bilan yuzaga kelgan muhim tarixiy qaror bo‘ldi. Bundan tashqari BMTning atrof-muhit dasturi (UNEP), Global ekologik jamg‘arma (GEF) kabi tashkilotlar bilan birgalikda ekologik loyihalar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, O‘zbekiston qo‘shni davlatlar bilan mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashda faol ishtirok etmoqda. Suv resurslarini boshqarish, transport yo‘llarini takomillashtirish va savdo aloqalarini kengaytirish borasida qator tashabbuslar ilgari surilgan.

O‘zbekiston “Markaziy Osiyo – Janubiy Osiyo” hamda “Xitoy – Qirg‘iziston – O‘zbekiston” temiryo‘l loyihalarini ilgari surib kelmoqda.
Toshkent – Andijon – O‘sh – Irkishtom – Qashgar avtomobil yo‘li xalqaro ahamiyatga ega loyiha sifatida rivojlanmoqda. 2023-yilda Markaziy Osiyo transport forumlari doirasida yuk tashish tizimini raqamlashtirish va chegaralardagi byurokratik to‘siqlarni kamaytirish masalalari muhokama qilindi.

Mintaqaviy savdoni erkinlashtirish maqsadida O‘zbekiston: Qirg‘iziston va Tojikiston bilan erkin savdo rejimini yo‘lga qo‘ydi, Qozog‘iston bilan strategik iqtisodiy sheriklik to‘g‘risidagi bitimni imzoladi, Turkmaniston bilan chegaradosh hududlarda savdo zonalarini rivojlantirish tashabbusini ilgari surdi. 2022–2023-yillarda Markaziy Osiyo davlatlari bilan o‘zaro savdo hajmi 8 milliard dollardan oshdi.

Xalqaro xavfsizlik va jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida terrorizm, ekstremizm, narkotik savdosi va boshqa transmilliy tahdidlarga qarshi kurashda ham O‘zbekiston BMT, SHHT va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan faol hamkorlik qilmoqda.

Madaniyat va ta’lim sohasidagi hamkorlik bo’yicha esa O’zbekiston UNESCO bilan tarixiy obidalarni asrash, madaniy merosni saqlash va ilm-fan sohalarida yaqin aloqalar yo‘lga qo‘yilgan. Erasmus+ dasturi orqali Yevropa universitetlari bilan almashinuv dasturlari amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikda energetika sohasida islohotlar o‘tkazmoqda. Xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va “Bir makon, bir yo‘l” loyihasi doirasidagi transport infratuzilmasini kengaytirish ustuvor vazifadir.

Sport va xalqaro tadbirlar doirasida O‘zbekiston xalqaro sport tashkilotlari bilan hamkorlikda Olimpiada va boshqa musobaqalarda faol ishtirok etmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyevning sport sohasini rivojlantirishga qaratilgan siyosati natijasida mamlakat xalqaro sport tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirib, olimpiada, jahon chempionati va boshqa yirik sport tadbirlarida barqaror natijalarga erishmoqda. Bundan tashqari O‘zbekiston 1996-yildan beri yozgi Olimpiya o‘yinlarida doimiy qatnashib kelmoqda. Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasi (IOC), Osiyo Olimpiya Kengashi (OCA) bilan doimiy hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. 2021-yilda O‘zbekiston Tokio-2020 Olimpiadasida 3 ta oltin va 2 ta bronza medalini qo‘lga kiritdi. 2023-yil Samarqandda o‘tkazilgan nufuzli xalqaro anjumanlar mamlakatimizning nufuzini oshirdi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng, xalqaro tashkilotlar bilan barqaror, izchil va strategik hamkorlikni yo‘lga qo‘yish mamlakat tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi hamda nufuzli xalqaro tuzilmalar bilan olib borilayotgan munosabatlar O‘zbekistonning siyosiy, iqtisodiy, ekologik va madaniy sohalarda yuksalishiga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Haydarov O., Qoraboyev S., “O’zbekistonning eng yangi tarixi” SamDVMCHBU. Samarqand 2022

2. Jo’rayev.N. “Mustaqil O’zbekiston tarixi”. G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent, 2013.

3. Sabirov. A “O’zbekiston tarixi” Toshkent: Akademiya 2013.

4 Тиллаев, Б. (2024). Globallashayotgan dunyoda ommaviy axborot vositalari va millat imidjining shakllanishi. Новый Узбекистан: наука, образование и инновации, 1(1), 491-493.

5. Мухитдинова, Ж. Р., Хайитмирзаева, М. М. (2020). Pedagogical heritage and contribution of the east and central asia thinkers in the development of creative personality.Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(3), 436-441.

6. Abdullayev R., Rajabov Q., Rahimov M. “O’zbekistonning tarixi” - Toshkent: O’zbekiston, 2019.